

Loyiha nomi: “O’zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish”

Loyiha raqami: AM-FZ-201908172

Loyiha maqsadi:

-O’zbek tilining ta’limiy korpusi tilning lingvovididaktika va lingvistikada ma’lumotlarni markazlashtirish, qayta ishlash imkoniyati hamda korpusdan foydalanish ahamiyatini belgilaydi. O’zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish xorij tajribalaridan kelib chiqqan holda uch bosqichda amalga oshiriladi. Jumladan: birinchi bosqichda ma’lumotlar elektron kutubxona shaklida, ikkinchi bosqichda matnni qayta ishlash shaklida, uchinchi bosqichda esa hajman katta, ammo sodda tegli korpuslar yaratish rejalashtirilgan. Ta’limiy korpusning loyihalash va tuzish texnologik jarayonlari o’rganilib, tegning korpusda matnni qayta ishlashni belgilab berishi, teg so’z shakllarning grammatik belgilarini ko’rsatishi va korpus menejerining qidiruv, saralash, filtrlash vazifasi va uning BONITO, XAIRA, SARA, SQR, DDS va boshqa turlarida ish olib borish nazarda tutilgan. Ta’limiy korpusni yaratishda o’zbek tilining ilmiy, amaliy maqsad va vazifalari, milliy, parallel, multymodal korpuslardan farqi, ta’limiy korpusining tuzilishi, tarkibi, hosilasi xorij tajribasi asos sifatida e’tiborga olinadi.

-Loyiha asosida yaratiladigan mahsulotlar xorijiy universitetlarda, til markazlari, elchixonalar qoshida tashkil etilgan kurslar tinglovchilariga o’zbek tilini tizimli ravishda o’rganishga shart-sharoit yaratadi. Shuningdek, loyiha mahsulotlari xorijdagi hamkorlik qilinayotgan oliy ta’lim muassasalariga, xorij elchixonalari tasarrufidagi markazlarga, xorijda o’zbek tili sohasida ilmiy tadqiqot olib borayotgan mutaxassislarga ham taqdim qilinishi mumkin.

-Ushbu loyihaning amalga oshishi xorijdagi ta’lim muassasalarini o’zbek tilining ta’limiy korpusi bo’yicha o’quv-uslubiy jihatdan ta’milanishiga imkon beradi.

-Jahon tilshunosligida cun’iy intellektning avtomatik tarjima, kompyuter tahlili, tahriri, tezaurus, elektron lug’at singari imkoniyatlari kengaydi, ilmiy-nazariy asoslari yaratildi, amaliyotda qo’llash mumkin bo’lgan ilk namunalari qo’llanila boshladi. Fandagi bu yangilanishlar axborot texnologiyalarini tilshunoslik va ta’limga tatbiq etishni kun tartibiga qo’ydi. Jahon pedagogika va lingvovididaktikasi til, adabiyot, ijtimoiy fanlar, xorijiy tillarni o’qitishning yangi-yangi usul va vositalari ishlab chiqilmoqda. Ta’limiy korpus shunday intensiv didaktik vositalardan biri sanaladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to’g’risidagi Farmoni”da: “... ona tilimizning Internet jahon axborot tarmog’ida munosib o’rin egallashini ta’minalash, uning kompyuter uslubini, o’zbek tili va dunyodagi yetakchi xorijiy tillar asosida tarjima dasturlari va lug’atlar, elektron darsliklar yaratish bilan bog’liq ilmiy-metodik ishlanmalar, amaliy tavsiyalar tayyorlash va bu borada erishilgan natijalarni amaliyotga keng tatbiq etish” vazifikasi

alohida qayd etilgan. Ushbu loyihaning bajarilishi mazkur Farmonda ko'rsatilgan ilmiy muammolarni hal etishga, o'zbek tili ta'limining informatsion vositalari: korpus, uning sayti va ilovasini yaratish, shu orqali ona tili yoki xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rganishning yangi imkoniyatini yaratadi. O'zbek tilining ta'limiy korpusi ona tili ta'limida zarur bo'ladigan lug'at, audio, video hamda didaktik materiallarni o'z ichiga olgan axborot-ta'limiy baza bo'la oladi. Ushbu korpus ona tilining imkoniyatlarini yanada kengroq ochish, go'zal va betakror tilimizni o'rganishga yordam beradi.

-Loyiha o'zbek tilining ta'limiy va milliy korpuslarini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda, kompyuter lingvistikasi yo'nalishida tadqiqotlar yaratishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

- O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish xorijiy tajribalardan kelib chiqib, bosqichma-bosqich ma'lumotlar shakllantirilishiga qaratilgan va o'zbek adabiy tilining bugungi so'zligini qamrab olgan elektron darslik, ko'p tilli so'zlashgichlar va o'zbek tilining boshqa tillarda ekvivalenti bo'lмаган, tarjima qilinmaydigan leksik birliklari – milliy-madaniy so'zlarning izohi berilgan glossariy, o'zbekcha to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan audio va videomateriallar hamda mobil ilova qamrab olingan mul'timedia mahsulotlari majmuasini yaratish ko'zda tutilgan. Bu esa respublikamizning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan ilmiy va texnologik zaxiralarni shakllantirishga xizmat qiladi.

-Ta'limiy korpus - o'zbek tilini davlat tili va ikkinchi til, shuningdek xorijiy til sifatida chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Ta'limiy korpusni tashkil etuvchi elektron kontent - audio, video, multimedya ilovalar, talaffuz va imlo qoidalarni o'rgatuvchi dasturlar, elektron o'quv lug'atlari foydalanuvchilarga o'zbek tilini mustaqil holatda ham qulay o'rganishga sharoit yaratadi. Amaldagi o'quv dasturlari mazmunidan farqli ravishda mazkur kompleks o'zbek tilini notanish vaziyatlarda ham qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Undan o'zbek tilini o'rganishni boshlovchilar, o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar, talabalar keng jamoatchlik foydalanishi mumkin.

-Loyihaning asosiy maqsadi o'zbek tili ta'limiy korpusini yaratish: maktab, litsey, kollej o'quvchilari, oliy ta'lim talabalari ta'limda foydalanadigan asosiy resurslar bazasini – ta'limiy korpusni yaratish (korpusni tashkil etuvchi resurslarni bir ilova/saytga to'plash, ulardan qulay foydalanish uchun platforma yaratish). Loyihada o'zbek tilining ta'limiy korpusi, uning o'ziga xos xususiyati, ijtimoiy, leksikologik, ta'limiy va boshqa sohalardagi ahamiyati, korpus lingvistikasi tarixi, korpus turlari, ta'limiy korpusining lingvistik qimmatini o'rganish, o'zbek tili ta'limiy korpusini yaratishning lingvistik asoslarini ishlab chiqish maqsad etib belgilangan.

Loyiha asosida yaratiladigan mahsulotlar xorijiy universitetlarda, til markazlari, elchixonalar qoshida tashkil etilgan kurslar tinglovchilariga o'zbek tilini tizimli ravishda o'rganishga shart-sharoit yaratadi. Internet tarmog'ida <http://uzschoolcorpara.uz/> sayti yaratilib, ishga tushirildi.